



ANALYSIS OF NOTARIAL REFORMS BASED ON BLOCKCHAIN AND LEGAL CHATBOTS: THE EXPERIENCE OF DELAWARE AND THE UNITED KINGDOM

Gavhar Sulaymanovna Kalandarova

Associate Professor, Tashkent State University of Law

gavharqalandarova86@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: blockchain, notary, digital registry, Delaware experience, smart contract, legal chatbot.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article discusses the issues of developing the notary system based on modern technologies. In particular, the application of blockchain technology in notarial processes, its advantages in the secure storage and verification of documents are widely analyzed. Also, the experience of the state of Delaware in blockchain-based registries is considered and the possibilities of adapting it to the conditions of Uzbekistan are assessed. The second part of the article examines the issues of using chatbots for legal consultations, regulatory approaches developed by the United Kingdom and their positive aspects. Finally, practical proposals for Uzbekistan are given.

BLOKCHEYN ASOSIDA NOTARIATI ISLOHOTLAR VA YURIDIK CHAT-BOTLAR: DELAVER VA BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI TAHLILI

Gavhar Sulaymanovna Kalandarova

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

gavharqalandarova86@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: blokcheyn, notariat, raqamli reyestr, Delaver tajribasi, smart-kontrakt, yuridik chat-bot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada notariat tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari yoritiladi. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasining notarial jarayonlarda qoʻllanishi, uning hujjatlarni xavfsiz saqlash va tasdiqlashdagi afzalliklari

keng tahlil qilinadi. Shuningdek, Delaver shtatining blokcheyn asosida yuritilgan reyestrlar bo'yicha tajribasi ko'rib chiqilib, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholanadi. Maqolaning ikkinchi qismida esa, yuridik konsultatsiyalar uchun chat-botlardan foydalanish masalalari, Buyuk Britaniya tomonidan ishlab chiqilgan tartibga solish yondashuvlari, ularning ijobiy jihatlari o'rganiladi va yakunida O'zbekiston uchun amaliy takliflar beriladi.

АНАЛИЗ РЕФОРМ НОТАРИАТА НА ОСНОВЕ БЛОКЧЕЙНА И ЮРИДИЧЕСКИХ ЧАТ-БОТОВ: ОПЫТ ДЕЛАВЭРА И ВЕЛИКОБРИТАНИИ

Гавхар Сулаймановна Каландарова

Доцент Ташкентского государственного юридического университета

gavhargalandarova86@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: блокчейн, нотариус, цифровой реестр, опыт Делавер, смарт-контракт, юридический чат-бот.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития нотариальной системы на основе современных технологий. В частности, подробно анализируется применение технологии блокчейн в нотариальных процессах, ее преимущества в безопасном хранении и проверке документов. Также рассматривается опыт штата Делавер в области реестров на основе блокчейна и оцениваются возможности его адаптации к условиям Узбекистана. Во второй части статьи рассматриваются вопросы использования чат-ботов для юридических консультаций, регуляторные подходы, разработанные в Соединенном Королевстве, и их положительные аспекты. В заключение приводятся практические предложения для Узбекистана.

Kirish. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida notariat va yuridik sohada ko'plab o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Blokcheyn texnologiyasi notarial harakatlarning ishonchliligini oshiradi va chatbotlar yuridik maslahatlarni tezkorlikda ko'rib chiqilishi imkoniyatini beradi. O'zi blokcheyn nima? Blokcheyn - bu barcha uchun ochiq va

o'zgaras bo'lgan ma'lumotlar bazasi. Ma'lumotlar bazasining bir xil nusxalarini butun tarmoq bo'ylab tarqatish orqali tizimni buzish yoki aldashni qiyinlashtiradi. Hozirgi vaqtda Blokcheyn asosan kriptovalyutalar sohasida qo'llanilayotgan bo'lsada, texnologiya juda keng doiradagi ilovalarga xizmat ko'rsatish potensialini taklif etadi [1].

Notariat sohasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda va ularga bo'lgan ehtihojlar yanada kengayib bormoqda bunga aniq misol qilib: O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-113 farmonini keltirish mumkin [2]. Ushbu farmonga ko'ra: Respublikada davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu farmon asosida "Notariat to'g'risida"gi qonunchilikga o'zgartirishlar kiritilgan. Masalan, ushbu qonunning 221 -modda. Notarial faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish hamda notarial harakatlarni amalga oshirishga aloqador davlat organlari bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan axborot tizimi Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidir [3].

O'zbekistonda notarial harakatlarni onlayn amalga oshirish tizimi ham hozirgi kunda o'zining samarali faoliyatini amalga oshirmoqda bu tizim E-notarius.uz⁴ deb nomlanadi bu tizimda fuqarolar o'zlari uchun kerakli notariusni tanlash va ular bilan onlayn muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tizimlarning yo'lga qo'yilishinig bir qancha qulayliklar va yomon taraflari ham mavjud. Birinchidan, siz uyingizdan chiqmasdan turib masofaviy notariuslar bilan muloqotga kirishasiz va vaqtingizni tejaysiz. Ikkinchidan, sizning moliyaviy tomonlama imkoniyatlaringiz kengroq ko'rinishga keladi. Yomon tomonlarida biri bu hozirgi texnologiyalar davrida bo'layotgan kiber hujumlar hisoblanadi ya'ni sizning yozishmalingiz, shaxsga doir ma'lumotlaringiz platformada chiqib ketishi mumkin. Bizning xalqimiz nega bunday tizimlardan kam foydalanishadi? Chunki bu tizimlar haqida yetarlicha targ'ibot ishlari olib borilmagan va bu bo'yicha bilimlari past. Mijozlaringiz o'z hisobvara q ma'lumotlariga to'g'ridan-to'g'ri sizga murojaat qilmasdan kirishlari mumkin bo'lgan xavfsiz onlayn interfeysni taqdim etadi. Har bir portal ma'lum bir mijozga tayinlangan va ularga hisobfakturalarini, bayonnomalarini va hisobvara q balanslarini ko'rish uchun o'z-o'zini xizmat ko'rsatish huquqini taqdim etadi [4].

Biz ushbu maqolani yozishda va tadqiqotlarni amalga oshirishda bir qancha metodlardan (usullardan) foydalanamiz bularga misol qilib: normativ huquqiy tahlil usuli, qiyosiy huquqiy

usuli, tahlil va kritik yondashuv, tavsiya va prognozlash metodlaridan foydalanamiz. Ushbu metodlardan foydalanish orqali biz notariat bilan bog‘liq bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganamiz. Xorijiy davlatlarda mavjud bo‘lgan ushbu soha bo‘yicha o‘rganilgan tadqiqotlar va maqolalar natijasida bu mavzuni solishtiramiz va amaliy yechimlar shuningdek yangi amaliyotlarni o‘rganamiz. Blokcheyn asosida notariat islohotlarini turli xil qarashlarni tahlil qilamiz va bular asosida yakuniy fikr chiqaramiz. Bizning amaliyotimizda qo‘llanilayotgan usullarni prognozlash orqali kamchiliklarini topamiz, ularga tavsiyaviy maslahatlar beramiz.

AQShning Delaver shtatida davlat organlari blokcheyn texnologiyasidan yuridik hujjatlarni ro‘yxatga olishda foydalanmoqda. U yerda korporativ hujjatlar, aksiyalar va shartnomalar raqamli tarzda saqlanadi. Bu tajriba hujjat aylanishini tezlashtirgan, xarajatlarni kamaytirgan va firibgarlikni deyarli yo‘q qilgan. O‘zbekiston uchun bu tajriba namunali bo‘lishi mumkin. Delaver blokcheyn texnologiyalarini korporativ huquqqa joriy qilgan birinchi shtatlardan biridir. 2017 yilda Delaver qonunchiligi o‘zgartirilib, kompaniyalarga o‘z aksiyalarini, hujjatlarini va yozuvlarini blokcheyn orqali yuritish imkoniyati berildi [5]. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham qulay va o‘rganishga arziydigan model hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab fuqarolar yuridik maslahatlarni onlayn tarzda olishni xohlashadi. Chat botlar bu jarayonni tez va qulay qiladi. Lekin ularning javobgarlik masalasi, maxfiylikni saqlash va advokatlik sirini himoya qilish masalalari qonunchilikda aniq belgilanmagan. ‘‘O‘zbekiston Respublikasi advokatura to‘g‘risida’’gi qonunining 9-moddasida Advokatlik siri bu- ishonch bildiruvchi shaxs advokatdan yordam so‘rab murojaat etganligining o‘zi, ishonch bildiruvchi shaxs yordam so‘rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs bilan o‘tkazgan suhbatida to‘xtab o‘tilgan barcha masalalar kiradi⁷. Buyuk Britaniyada bu masalaga jiddiy yondashilgan. Masalan, Buyuk Britaniya ‘‘Law society of England and wales’’ 2021-yilda sun‘iy intellekt vositalari orqali huquqiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maxsus qo‘llanma qabul qilgan

Biz ushbu metodlar yordamidagi tadqiqotlarda turli xil natijalarga erishdik. Advokatlik siri tushunchasi turli xil davlatlarda turli xil prinsiplar va ko‘rinishlarga ega hisoblanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada bu tushunchaning eng asosiy prinsiplaridan biri bu Attorney-client privilege degan tamoyildir. Advokat va mijoz o‘rtasidagi muloqot har qanday holatda ham maxfiy ekanligini bildiradi, bu ma‘lumotlar har qanday holatda ham ikkinchi shaxsning roziligiz uchunchi shaxslarga oshkor etilmaydi [6].

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida advokatlik siri tushunchasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topgan bo‘lsa ham advokatlik sirini tashkil etadigan ma‘lumotlar haligacha mavhum narsa sifatida qolmoqda. Milliy qonunchiligimizda advokat siri hisoblangan ma‘lumotlar sudda dalil sifatida foydalanish mumkin emasligi holatlari ham qayd etib o‘tilgan. Advokatlik siri haqidagi normalar advokatlar tomonidan buzilgan taqdirda Respublika advokatlar hay‘ati tomonidan belgilanga tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 432-son qarori bilan advokatlik faoliyatini raqamli litsenziyalash joriy etilgan, yangi litsenziyalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali berila boshlandi va advokatlik faoliyatini litsenziyalashni fuqarolik, iqtisodiy, ma‘muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosliklari bo‘yicha amalga oshirish kabi vazifalar zimmasiga yuklangan [7]. Bu kabi o‘zgarishlar advokatlik sohasida ham legal techning o‘rni oshib borayotganligidan dalolat beradi. Smart kontrakti tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak bo‘ladi. Smart kontrakt blokcheyn texnologiyasi asosida ishlaydi. Blokcheyn - bu barcha ma‘lumotlar saqlanadigan va tasdiqlanadigan tarqatilgan tizimdir. Shartnoma bir marta yozib qo‘yilgach, u o‘zgartirib bo‘lmaydigan holatda blokcheynda saqlanadi. Dastur shartnoma shartlarini tamoyili bo‘yicha ishlaydi. Misol uchun, siz avtomobil sotib olmoqchisiz. Smart-kontrakt shunday tuzilishi mumkin:

1. Xaridor mablag‘ni o‘tkazadi.
2. Smart kontrakt to‘lovni tasdiqlaydi va avtomatik ravishda mashinani xaridor nomiga o‘tkazadi [8].
3. Smart-kontraktlarning afzalliklari:
4. Smart-kontraktlar an'anaviy shartnomalarga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega:
 1. Xavfsizlik - Blokcheynning asosiy xususiyati ma‘lumotlarning o‘zgartirilmasligi va himoyalanganligi. Shartlar bir marta yozilgach, ularni hech kim o‘zgartira olmaydi.
 2. Avtomatlashtirish - O‘z vaqtida bajariladigan harakatlar inson aralashuvisiz amalga oshadi. Bu hujjatlar tayyorlash yoki vositachilar orqali ishlashdan ko‘ra tezroq.
 3. Tejamkorlik - Oraliq vositachilar kerak bo‘lmaganligi sababli moliyaviy xarajatlar kamayadi.
 4. Shaffoflik – Smart kontraktning barcha jarayonlari blokcheynda saqlanadi, bu esa ishtirokchilarga shaffoflikni ta‘minlaydi [9].

Smart kontraktlar nafaqat hozirda, balki kelajakda ham turli sohalarda yanada rivojlanishi kutilmoqda. Ko‘plab jarayonlarni tezlashtirish, xavfsizlikni yanada oshirish va odamlarning

ishtirokini minimallashtirish tufayli smart kontraktlar biznes va kundalik hayotda yanada kengroq foydalanishga olib kelishi mumkin [10]. Bu texnologiya zamonaviy dunyoda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda va har qanday sohada jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ko'plab qulayliklar yaratmoqda.

Xulosa. Notariat va yuridik xizmatlarni raqamlashtirish orqali O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Delaver tajribasi blokcheyn texnologiyasini qonuniy joriy etish mumkinligini isbotladi. Buyuk Britaniya esa yuridik chat-botlarni qanday tartibga solish kerakligini aniq ko'rsatib bergan. Agar ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilsa, notariat tizimining ishonchliligi oshadi, yuridik xizmatlar esa aholiga yanada qulay bo'ladi. Shu sababli tegishli qonunlarga o'zgartirishlar kiritish, texnologik infratuzilmani kuchaytirish va raqamli yuridik xizmatlar bo'yicha maxsus standartlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, E-notaries.uz saytiga ham o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish muhim deb hisoblayman. Albatta, xorij tajribasidan foydalanish orqali, masalan Buyuk Britaniya va Delaver tarjibalari bunga yaqqol misoldir. Shuningdek, O'zbekistonda smart shartnomalarni joriy etish kelajakda ko'plab huquqiy va texnik qulayliklar yaratishi mumkin. Chunki smart shartnoma odatdagi shartnomadan farqli ravishda avtomatik va tezroq ishlaydi, ya'ni undagi shartlar bajarilganda tizim o'zi natijalarni tasdiqlaydi. Bu jarayon inson xatosini kamaytiradi, vaqtni tejaydi va firibgarlikning oldini oladi. Smart shartnomalar ayniqsa, notariat, ko'chmas mulk oldi-sotdisi, kreditlash va davlat xizmatlarida juda qo'l keladi. Albatta, buni joriy qilish uchun qonunchilikda aniq me'yorlar, texnik xavfsizlik talablar va maxsus reyestr kerak bo'ladi. To'g'ri yo'l tutilsa, smart shartnomalar O'zbekistonda raqamli huquqiy xizmatlarning sifatini ancha oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blockchain Texno. <https://www.blockchaintexno.uz/news/blokcheyn-nima%3F>
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-113 farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-54503?ONDATE=07.02.2024>
4. Mijozportallari Manager.io. <https://www.manager.io/uz/guides/customerportals>.
5. Delaware, S. O. Delaware.gov - official website of the state of Delaware.
6. delaware.gov - Official Website of the State of Delaware. <https://delaware.gov/>

7. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi: “Advokatura va advokatlik faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari tahlili”

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.08.2022 yildagi 432-son <https://lex.uz/uz/docs/-6143599?ONDATE=29.11.2023&action=compare>

9. Blockchain Texno. <https://www.blockchaintexno.uz/news/smart-kontraktnima%3F>.